



**O‘zbekistonda pensiyani moliyalashtirish manbalari va pensiyani
moliyalash usullari tadqiqi**

Raxmonov Nuriddin Muxammadjonovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada pensiya tizimida amalga oshirilgan islohotlar va pensiya ta'minoti tizimiga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilgan, shuningdek, pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pensiya, pensiya ta'minoti, pensiya sug'urtasi, ijtimoiy nafaqa, mehnat staji, moliyaviy barqarorlik, pensiya jamg'armasi

Davlat pensiya ta'minoti tizimi davlat ijtimoiy himoya siyosatining eng muhim va asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, keksa, nogironligi bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni moddiy ta'minlashga va ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuini nazarda tutadi. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab davlat pensiya ta'minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bir qancha ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Jumladan:

- pensiya ta'minoti tizimini tartibga solishning normativ-huquqiy bazasi shakllantirildi va takomillashtirilib borilmoqda;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi takomillashtirildi;



- pensiya ta’minotida majburiy (avlodlar birdamligi va jamg’arib boriladigan pensiyalar) va ixtiyoriy tizimni qamrab oluvchi ko‘p darajali tizim yaratildi va faoliyat yuritmoqda;
- omonatchilarning jamg’arilgan pensiya mablag‘lari saqlanishini davlat tomonidan kafolatlash joriy qilindi;
- pensiya ta’minoti tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilindi va shu asosda turli muassasalar bilan axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi;
- ayrim toifadagi fuqarolarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi;
- mehnat sharoitlari og‘ir va zararli ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun imtiyozli shartlaridagi pensiyalar joriy qilindi;
- iste’mol tovarlari va xizmatlar narxining o‘sib borishiga muvofiq davlat tomonidan fuqarolarning pensiya va ijtimoiy nafaqa miqdorlari oshirib borildi, shu orqali ularning mablag‘lari inflyasiyadan himoya qilinib, xarid qobiliyati va o‘rtacha real daromadi saqlab qolindi;
- O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asosida fuqarolarning mehnatga haq to‘lash turidagi daromadlari optimallashtirildi;
- mamlakatda o‘rtacha pensiya miqdorining o‘rtacha ish haqiga nisbati 42,9 foizni tashkil etishiga erishildi. Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 40 foizdan kam bo‘lmasligi zarur.

Biroq, statistik tahlillar natijasi, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar, yetakchi olimlarining fikr-mulohazalari, fuqarolarning murojaatlari, pensiya ta’minoti tizimidagi asosiy tendensiyalar va tajribalar hamda milliy pensiya tizimining xorijiy va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari pensiya tizimi va islohotlari bilan qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat pensiya ta’minoti tizimida hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar



mavjud. Demografik omillarning pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri, ijtimoiy sug'urta tizimini moliyalashtirishda aholining mutanosib ishtirokini ta'minlash zarurligi hamda moliyaviy mablag'larni taqsimlashdagi samarasiz vositalar va ijtimoiy sug'urtadagi rag'batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi shular jumlasidandir.

Mualliflar A.P.Shemetov va S.N.Orlovlarning "Pensionnoye obespecheniye v Rossiyskoy Federasii" nomli monografiyasida pensiya ta'minoti tizimi modellari, ularning prinsiplari va o'ziga xos xususiyatlari, Rossiya pensiya ta'minoti tizimining joriy holati o'rganilgan va tahlil qilingan, pensiya ta'minoti tizimidagi muammolar va uning sabablari aniqlangan, muammolarni ijobiy hal etish yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ye.V.Chuprovaning "Pensionnoye obespecheniye grajdan v Rossiyskoy Federasii" nomli o'quv qo'llanmasida qarilik, nogrionlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya sug'urtalari, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti, pensiyalarni tayinlash va to'lash tartiblari ifodalangan.

Mualliflar G.Kasimova va A.Botirovning "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti" nomli monografiyasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining ahamiyati, nazariy asoslari, hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari ochib berilgan.

A.Vaxabov va N.Majidovning "Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasining O'zbekistonda investisiya siyosatini amalga oshirishdagi roli" nomli monografiyasida pensiya tizimi rivojlanishining nazariy asoslari, nodavlat pensiya ta'minoti – pensiya tizimining ijtimoiy-investision infratuzilmasi elementi sifatidagi roli, milliy pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investision imkoniyatlarini oshirishning xorij tajribasi kabilar tadqiq qilingan. G.Kasimova va D.Sholdarovning "Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish" nomli monografiyasida aholini ijtimoiy himoyalash tizimida pensiya ta'minotining o'rni va ahamiyati, pensiya ta'minotida moliyaviy resurslarning xavfsizligi va risklar, pensiya ta'minoti mablag'larini



investisiyalashda risklarni boshqarish hamda pensiya ta'minoti mablag'larini samarali boshqarish masalalari yoritib berilgan.

B.Mamatovning "Pensiya jamg'armasi faoliyati" nomli o'quv qo'llanmasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari, Pensiya jamg'armasi byudjeti, daromadlari va xarajatlari, Pensiya jamg'armasi faoliyati nazorati va tizimning axborot ta'minoti kabi masalalari o'rin olgan. D.Rustamovning "O'zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari" nomli monografiyasida O'zbekistonda Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari, Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari, pensiya tizimi holati va rivojlanish tendensiyalari hamda Pensiya jamg'armasi moliyaviy barqarorligini ta'minlash istiqbollari tadqiq etilgan bo'lib, ular yuzasidan muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan va taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

A.Vaxabov va boshqalar tomonidan tayyorlangan "Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi" nomli darslikda pensiya tizimlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari, pensiya ta'minotining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ahamiyati, jahondagi pensiya tizimlarini isloh etish modellari va pensiya ta'minotini rivojlantirish tajribasi, rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari pensiya tizimlarini isloh etishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida pensiya ta'minotining ma'lum bir mezonlarga qarab, jahonda keng tarqalgan va barqaror faoliyat ko'rsatayotgan pensiya ta'minoti modellarini tizimlashtirish va ajratib olish mumkin.

Masalan, moliyalashtirish manbalariga qarab: davlat, xususiy, aralash; moliyalash usullariga qarab: taqsimlanuvchi, jamg'arib boriluvchi va aralash pensiya tizimi ko'rinishlari mavjud.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi ikki ko'rinishda tashkil etilgan bo'lib, bular davlat pensiya ta'minoti tizimi va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimidir. Mazkur




pensiya tizmlarini tavsiflashda “pensiya riski” tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi, ammo bunday tushuncha pensiya qonunchiligida keltirilmagan.

Risk – bu pensiya tizimining kvintessentsiyasi (o‘zagi)dir. Pensiya risklari turli xil bo‘lib, pensiya bilan bog‘liq risklar bir vaqtning o‘zida demografik, iqtisodiy va moliyaviy risklar bilan ham bog‘liq hisoblanadi.

Pensiya risklarini aniqlashda eng avvalo ekzogen va endogen omillarga ajratib olish maqsadga muvofiq. Bunda ekzogen risklar makroiqtisodiy risklarni o‘z ichiga olsa, endogen risklar esa pensiya tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ichki risklardan iborat.

Ekzogen risklarda iqtisodiy, moliyaviy va demografik omillarning ta’siri pensiya tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmasada ammo moliyalashtirish nuqtai-nazardan jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Endogen risklardagi omillar esa bevosita ta’sir ko‘rsatadi.





Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish Kontsepsiyasi, ayni vaqtda, ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi zarur va dolzarb bo'lgan eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardandir. Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish Konsepsiyasi loyihasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi zarur, deb hisoblaymiz:

- 1) O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining joriy holati;
- 2) mamlakatdagi demografik omillar;
- 3) pensionerlar (yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik) soni va uning jami aholi tarkibidagi ulushi;
- 4) imtiyozli shartlardagi pensiyalar;
- 5) pensiyalarga ustama haqlar;
- 6) pensiyalarning o'rtacha miqdori;
- 7) aholining o'rtacha umr davomiyligi yoki yashash muddati;
- 8) pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi;
- 9) pensionerlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar;
- 10) ish bilan band aholi (sug'urta badali to'lovchilar) sonining pensionerlarga nisbati;
- 11) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibliigi;
- 12) mehnat migrantlarining davlat pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi;
- 13) ish bilan band aholining pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi;
- 14) pensiyaga chiqish yoshi va boshqa omillar chuqur tahlillar asosida atroflicha o'rganilishi va bayon qilinishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova G., Botirov A. Jamg'arib bo'lingan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
2. Vahobov A., Majidov N. Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasining o'z biznesida investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: “Universitet”, 2017. – 128 b.
3. Qosimova G., Sholdarov D. Pensiya ta'minotini boshqarish. Monografiya. – T.: “TMI”, 2017. – 225 b.